



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

**И.Б.Маттиев** – СамИСИ профессори, DSc

<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Гулнора Мардиевна Шадиева</b> Малый бизнес как фактор социально-экономического развития Узбекистана	155
<b>Laziz Niyozovich Xudoyorov</b> Qashqadaryo viloyatida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari	160
<b>МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ</b>	
<b>Dilafroz Saidbaxromovna Saidaxmedova</b> Qurilish korxonalarida sifat menejmenti tizimini samarali joriy etish: tahlil va takliflar	164
<b>Ибодулла Хасанович Ибрагимов</b> Персонализация как драйвер повышения результативности транзакционных маркетинговых кампаний	167
<b>Baxtiyor Nabijanovich Dedajanov</b> Tovar-moddiy zahiralarni erkin talab sharoitida boshqarish – korxonalar operatsion faoliyatining samaradorligini oshirish garovi	171
<b>Xilola Nematovna Ochilova</b> “Kompensatsiya va imtiyozlar” fanining mazmuni, mohiyati va ahamiyati	175
<b>Ирода Аминжонова Умурзакова</b> Совершенствование организационно-экономических механизмов маркетинга в условиях цифровой трансформации сферы услуг	180
<b>Botir Hayat Muradov</b> Togʻ-kon sanoati korxonalarining yashil iqtisodiyotga oʻtish muammolari va yechimlari	183
<b>Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli Salohiddinov</b> Iqtisodiy jarayonlarda resurslardan foydalanish va taqsimot modellari	186
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Ойдин Давроновна Хамракулова</b> Инвестиции и становление инновационного пути развития экономики Узбекистана	192
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Bobur Farxodovich Boronov, Shahboz Shodi oʻgʻli Rajaboyev</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining tavsifi va buxgalteriya hisobi	197
<b>Otabek Olimjonovich Sobirov</b> Boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari	202
<b>Xurshidjon Nazrullo oʻgʻli Abdullayev</b> Ekologik audit oʻtkazishning usullari va tartib-qoidalari	205
<b>Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva</b> Chakana savdo aylanmasining mohiyati va rivojlanishi	211
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Shaxnoza Ergashevna Samandarova</b> Boshlangʻich va umumiy oʻrta taʼlim matematika taʼlimida uzviylik muammosining nazariy asoslari	214
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Самарқанд ҳаётидаги олти муаммо, олти таклиф ва олти натижа	217

4. G‘ulomov, S.S. (tahrir.) (2010). *Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari*. Toshkent: Davlat Iqtisodiyot Universiteti.
5. Rajaboyev Sh. Sh. AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TAVSIFI // Экономика и социум. 2025. №4-1 (131). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-kommunikatsiya-xizmatlarining-tavsifi> (дата обращения: 18.09.2025).
6. Kупенова, Z., Ваймуханова, S., Нурғалиева, G., Жунисова, G., & Нурмухан, A. (2020). *Digital economy and its role in accounting*. E3S Web of Conferences.
7. Боронов Б.Ф., Ахмедов М.А., and Худайназарова Д.Г.. "Корхоналарда даромадлар ва харажатларни бошқа умумлашган даромадлар тўғрисидаги ҳисоботда акс эттириш масалалари" Экономика и социум, no. 3-2 (118), 2024, pp. 547-556.

<p><b>Б.Боронов, Ш.Раджаббоев</b></p> <p><b>Значение и характеристика услуг информационно-коммуникационных технологий как объекта бухгалтерского учета в условиях цифровой экономики</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье анализируется экономическое содержание услуг информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в условиях цифровой экономики, их роль и значение как объекта бухгалтерского учета. Рассматривается роль ИКТ в повышении эффективности национальной экономики, а также пути правильного отражения их в учете и отчетности на основе международного опыта. Кроме того, освещены практические аспекты правильной классификации доходов и расходов по ИКТ в деятельности предприятий, их контроля и формирования финансовых результатов.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> цифровая экономика, услуги информационно-коммуникационных технологий, бухгалтерский учет, доходы и расходы, международные стандарты финансовых отчетов.</p>	<p><b>B.Boronov, Sh.Rajaboev</b></p> <p><b>Description and significance of information and communication technology services as an object of accounting in the context of the digital economy</b></p> <p><b>Abstract.</b> The article analyzes the economic essence of information and communication technology (ICT) services in the context of the digital economy, as well as their role and importance as an object of accounting. It examines the contribution of ICT to enhancing the efficiency of the national economy and the ways of properly reflecting them in accounting and reporting based on international experience. In addition, the paper highlights the practical aspects of correctly classifying ICT-related revenues and expenses in enterprise activities, their control, and the formation of financial results.</p> <p><b>Keywords:</b> digital economy, information and communication technology services, accounting, revenues and expenses, international financial reporting standards.</p>
---	--

**Otabek Olimjonovich Sobirov** – PhD, Namangan davlat texnika universiteti, Buxgalteriya hisobi kafedrasida dotsenti

### BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Annotatsiya.** Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini tashkil etishning nazariy asoslari tadqiq etilgan bo‘lib, bu borada xorijiy va mamlakatimizda ilmiy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlarni tadqiqotlari va yondashuvlari ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan. Shuningdek boshqaruv hisobining konseptual tarkibi borasidagi jahon va respublikamizdagi olimlarning fikrlarini tanqidiy tahlil etish natijasida uni tarkibiy qismlarga ajratishda turli xildagi fikrlar va mulohazalar o‘rganilgan va ularni yechimiga qaratilgan xulosa va ilmiy takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshqaruv hisobi, xarajatlar, ishlab chiqarish, nazorat, hisobotlar, moliyaviy hisob, javobgarlik markazlari, eksport, mahsulot, tannarx hisoblash.

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektni samarali boshqarish ko‘p jihatdan uning faoliyati, mahsulot (ish, xizmat)larining turlari, bo‘linmalari bo‘yicha natijaviy ma‘lumotlarga to‘liq erishish, ularni chuqur tadqiq etish va zaruriy chora-tadbirlarni qo‘llashga bog‘liqdir. Bunda eng asosiy o‘rinni xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyat turlari bo‘yicha natijaviy axborotlariga erishish egallaydi. Boshqaruv hisobining tashkiliy va uslubiy asoslarini ishlab chiqishda eng asosiy nazariy masala bo‘lib uning konseptual negizlarini tadqiq

etish hisoblanadi. Jahon amaliyotini o‘rganish natijasida shunday xulosaga keldikki, boshqaruv hisobining yagona bir kanseptual modeli yo‘q. Ya‘ni har bir mamalakt, iqtisodiyot, uning tarmoqlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlari uchun o‘z xususiyatlaridan kelib chiqqan holda alohida-alohida bir-biridan mazmunan ham shaklan farqlanuvchi boshqaruv hisobi tizimlari mavjud. Bu jarayonlarni tadqiq etish bugungi kundagi muhim masalalardan hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Boshqaruv hisobining kanseptual negizlari borasida olimlar o‘rtasida ham yakdillik mavjud emas. Olimlarni yondashuvlarini ko‘rib chiqamiz. Masalan, J.Berfeldning ta‘kidlashicha “Boshqaruv hisobining kanseptual asoslari: xarajatlar hisobidan, schyotlar rejasidan, hisobotlar tizimidan hamda xarajatlar tahlilidan tashkil topadi”.

I.Kabb, J.Innes va F.Mitchellarning fikricha “Boshqaruv hisobining kanseptual asosini: xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxini hisoblash, byudjetlashtirish, hisobot shakllari hamda prognozlashtirish” tashkil etadi.

S.Sh.Yuldashvning fikricha “Boshqaruv hisobining tarkibiy asoslari: hisob, nazorat, iqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” dan iboratdir.

Ch.T.Xorngren va Dj.Fosterlarning ta‘kidlashlaricha “Boshqaruv hisobining kanseptual asoslari: xarajatlar hisobi, tannarxni hisoblash, rejalashtirish, byudjetlashtirish, strategik nazorat, faoliyatga baho berish, prognozlashtirishdan iborat”.

D.Kieso, S.Devidson va M.Maxerlarning fikricha boshqaruv hisobining tarkibini xarajatlar hisobi, xarajatlar tahlili, budjetlashtirish, rejalashtirish, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy hisobotlar tahlili hamda nazorat” faoliyatlari tashkil etadi.

B.Xasanovning fikricha esa boshqaruv hisobining tarkibiy qismi “budjetlashtirish (rejalashtirish), xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, javobgarlik markazlari bo‘yicha segmentar hisob va hisobot, ichki xo‘jalik bo‘linmalari o‘rtasida transfert bahoni shakllantirishdan iborat”.

Yuqorida qayd qilingan fikr va mulohazalardan ko‘rinadiki, boshqaruv hisobining barcha mamlakatlarda, iqtisodiyotlarda hattoki xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ham yagona bir qabul qilingan tizimi mavjud emasligini tushunish mumkin. Buning bir qancha asosiy sabablari mavjud, ularga to‘xtalib o‘tishimiz maqsadga muvofiqdir:

- boshqaruv hisobining xalqaro qabul qilingan yagona bir tizimi mavjud emasligi;
- boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish qonun yoki yo‘riqnomalarda talab etilmaganligi;
- biror-bir mamlakatda xo‘jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv hisobini yuritishi shart emasligi;
- yuqori tashkilotlar tomonidan boshqaruv hisobini yuritish talab etilmaganligi;
- boshqaruv hisobining iqtisodiy samarasini bevosita hisob-kitob qilib ko‘rib bo‘lmazligi, ya‘ni boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish xarajatlari u beradigan samaradan yuqori bo‘lgan taqdirda uni amalga oshirish maqsadga muvofiq emas va shu kabilar.

Demak, boshqaruv hisobining kanseptual tarkibi borasidagi jahon va respublikamizdagi olimlarning fikrlarini tanqidiy tahlil etish natijasida uni tarkibiy qismlarga ajratishda turli xildagi fikrlar mavjud ekanligini ko‘rish mumkin. Albatta, mana shu masalaning ayrim jihatlari bo‘yicha yakdillik ham mavjud.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Boshqaruv hisobini tashkil etish va yuritish, uni takomillashtirish borasida olib borilgan tadqiqotimizda: ma‘lumotlarni guruhlash, ekspert xulosalaridan foydalanish, qiyosiy tahlil, mantiqiy fikrlash va boshqa usullardan samarali foydalanildi va bu ishning natijadorligini ta‘minlamoqda.

**Tahlil va natijalar.** Ko‘plab iqtisodchi olimlarning boshqaruv hisobi borasidagi yondashuvlarida, ya‘ni boshqaruv hisobining kanseptual asosining - xarajatlar hisobi, tannarxni hisoblash, byudjetlashtirish va tahlil qismlarini mohyatini ochin berishda qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Shunday holatning mavjudligi sababli, respublikamizda boshqaruv hisobi tizimini tashkil etish va yuritishni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida o‘z taklifimizni ishlab chiqdik.

Bizning fikrimizcha, uning tarkibiga: byudjetlashtirish, rejalashtirish, taxminlash, aylanma mablag'larni boshqarish, faoliyatni baholovchi asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish, xarajatlarni boshqaruv hisobi talablari asosida turkumlashtirish, boshqaruv hisobi uchun schyotlar rejasi, boshqaruv va moliyaviy hisobdagi xarajat guruhlarini o'zaro muvofiqlashtirish, xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxini hisoblash, ichki segmentar hisobot tizimi, boshqaruv hisobi yozuvlari bilan moliyaviy hisob yozuvlarini muvofiqlashtirish tartibi, ichki iqtisodiy tahlil, zararsizlik nuqtasining tahlili, investitsion loyihalar tahlili, transfert baholarni shakllantirishni kiritish mumkin.

Boshqaruv hisobining konseptual tarkibi quyidagi maqsadlarni ko'zlashi bilan ahamiyatlidir:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarni butun xarajatlari byudjetlashtirish orqali amalga oshiriladi va bu turli chetlanishlarni oldini oladi;

- xarajatlarni boshqaruv hisobi talablari asosida turkumlashtirish, bu esa foyda, xarajat va javobgarlik markazlari faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini yanada oshiradi;

- mahsulot tannarxini zamonaviy usullar yordamida hisoblash imkoniyatini ta'minlaydi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini o'tgan va joriy davrlar uchun tahlilini amalga oshirish kelgusida strategik qarorlar qabul qilish, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlarni strategik prognoz balansini tuzish imkoniyatini yaratadi.

Xarajatlarni boshqaruv hisobi talablari asosida turkumlashtirish foyda, xarajat va mas'uliyat markazlari bo'yicha va boshqa boshqaruv talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim. Bu bizga xarajatlarni kalkulyastiya moddalari bo'yicha ta'kidlangan markazlarda mujassamlashuvini, uning to'g'ri hisobga olinishini, nazorat va boshqaruv tahlilini o'tkazishda, zaruriy chora-tadbirlarni qo'llashda rahbariyatga juda qo'l keladi.

Xulosa va takliflar. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish imkoniyatlarini inobatga olgan holda boshqaruv hisobini tashkil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Natijada:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini to'g'ri tashkil etish hamda samarali yuritishning uslubiy jihatlari to'g'ri baholash imkonini beradi. Natijada xo'jalik yurituvchi subyektlarda boshqaruv hisobini to'g'ri shakllanishiga erishiladi, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati tomonidan samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos bo'ladi;

- xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlariga ichki imkoniyatlarni baholashga, hozirgi globallashuv sharoitida tashqi muhit omillarini hisobga olish hamda ularni tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyatini beradi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlarda samarali tarzdagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy ma'lumotlarning asoslanganligi ta'minlanadi, strategik ko'rsatkichlarini to'g'ri shakllantirish imkoniyati yaratiladi, mavjud variantlar ichidan samaralisini tanlash imkoniyati kengayadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamiz iqtisodining barcha tarmoqlarida boshqaruv hisobini faoliyat turlari bo'yicha shakllantirish va amaliyotga tadbiiq etish zamon talabidir. Balki resurslardan oqilona, samarali foydalanish, xarajatlarni imkoniyat darajasida, asosli ravishda pasaytirish evaziga foyda miqdorini oshirishdir.

Buning uchun esa boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyat turlari bo'yicha tashkil etish va yuritish lozim. Umuman olganda xarajatlarni boshqaruv hisobini tadqiq etish kelgusida mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi va bu boradagi tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi: Darslik. T.: "Iqtisod-Moliya", 2019-yil.
2. Sobirov O.O. Boshqaruv hisobi-2. Darslik. Namangan. SUNRISE-PRO nashriyoti. 2024-yil.
3. Kostayev U.U. Strategik boshqaruv hisobi metodologiyasini takomillashtirish. /iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent, 2020 y., 69 b.

4. Sobirov, O.O. “Improvement of management accounting in economic entities”. Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation on Economic Sciences. Tashkent. TMI (2022).

<b>О.Собиров</b>	<b>O.Sobirov</b>
<b>Теоретические основы организации управленческого учета</b>	<b>Theoretical foundations of the organization of management accounting</b>
<p><b>Аннотация.</b> В статье рассматриваются теоретические основы организации управленческого учета в хозяйствующих субъектах, рассматриваются и анализируются исследования и подходы зарубежных и отечественных экономистов, проводивших научные исследования в данной области. Также в результате критического анализа мнений ученых мира и нашей республики относительно концептуальной структуры управленческого учета изучены различные точки зрения и соображения по его разделению на составляющие, даны выводы и научные предложения, направленные на их решение.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> управленческий учет, затраты, производство, контроль, отчетность, финансовый учет, центры ответственности, экспорт, продукция, калькуляция себестоимости.</p>	<p><b>Abstract.</b> The article studies the theoretical foundations of the organization of management accounting in economic entities, reviews and analyzes the research and approaches of foreign and domestic economists who have conducted scientific research in this area. Also, as a result of a critical analysis of the opinions of scientists from around the world and our country on the conceptual structure of management accounting, various opinions and considerations were studied in dividing it into components, and conclusions and scientific proposals were given aimed at solving them.</p> <p><b>Keywords:</b> management accounting, costs, production, control, reports, financial accounting, responsibility centers, export, product, costing.</p>

**Xurshidjon Nazrullo o‘g‘li Abdullayev** – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” MTU Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD

### **EKOLOGIK AUDIT O‘TKAZISHNING USULLARI VA TARTIB-QOIDALARI**

<p><b>Annotasiya.</b> Ushbu maqolada O‘zbekistonda ekologik audit o‘tkazish bo‘yicha ilmiy-nazariy asoslari auditorlik faoliyatida so‘ngi paytlarda qo‘llaniladigan usullar hamda sohaning rivojlanish muammolari va istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi. O‘zbekistonda ekologik auditning o‘tkazilish asoslarini belgilovchi huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tajriba o‘rganilgan. Shu bilan birga, ekologik auditning xalqaro standartlarga muvofiqligi, korxonada imidjini shakllantirishda va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash masalalari ham turli metodlar yordamida o‘rganilgan.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> ekologik audit, induktiv va deduktiv usullar, protseduralar, yashil iqtisodiyot, ekologik monitoring.</p>
---

**Kirish.** Ekologiya va iqtisodiy munosabatlarni samarali tartibga solishga imkon beradigan va ekologiya xavfsizlik talablarini ta‘minlashga qaratilgan yangi vositalardan biri bu ekologiya auditidir. Ekologiya audit atrof-muhitni boshqarish tizimining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, atrof-muhit samaradorligi ko‘rsatkichlarini baholashni, tahlil qilish va tavakkalchiliklarni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlarini ekologiya xavfsizlik tamoyillariga rioya qilish asosida tadbirkorlik faoliyatini optimallashtirish va takomillashtirish vositasi sifatida ekologiya auditni rivojlanishining yangi yo‘nalishi ochib berilmoqda. Moliyaviy va ekologiya audit kapitalini jalb qilish, investitsiyalarni rivojlantirish, nou-xau joriy etish, resurslarni tejash, ekologiya xarajatlarni kamaytirishda moliyaviy va ekologiya auditni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ekologiya xarajatlari auditini Auditorlik faoliyati O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo‘lmagan, Xalqaro Buxgalterlar Federatsiyasining O‘zbekiston Respublikasida e‘lon qilish to‘g‘risidagi ruxsatnomasi asosida auditorlik faoliyati sohasidagi vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan auditorlik faoliyati standartlari asosida amalga oshirilishi bo‘yicha taklifi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ -

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84  $\frac{1}{8}$ . “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.